

ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

METODIKA

2023 Vol. 4 (2)

www.metodika.tsuull.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir

Bosh muharrir o‘rinbosarlari

Mas’ul kotib

Marg‘uba Abdullayeva

Qozoqboy Yo‘ldoshev

Roza Niyozmetova

Klaraxon Mavlonova

Tahrir kengashi

Fatma Achik (Turkiya), Ayshi Chetin (Turkiya), Sahlo Naraliyeva (Qozog‘iston), Homidjon Homidiy, Shohida Yusupova, Shahlo Yo‘ldosheva, Nusratillo Jumaxo‘ja, Nishonboy Xusanov, Gulshan Asilova, Gulnoza Jo‘rayeva, Shahnoza Rahmonova, Tursunoy Yusupova, Hoshimjon Ahmedov, Tozagul Matyoqubova, Saodat Qambarova, Husnigul Jurayeva, Sohiba Umarova, Shohrux Abduraimov, Munira Shodmonova, Mahfuza To‘ychiyeva, Matluba Jabborova, Abdug‘ofir Rahmonov, Iroda Ishonxanova, Sanobar Kuldasheva (texnik muharrir).

Jurnal haqida ma’lumot

“Metodika” seriyasi – Oliy attestatsiya komissiyasi ilmiy nashrlar ro‘yxatidagi “O‘zbekiston: til va madaniyat” akademik jurnalining ilovasi hisoblanib, ta’lim va tarbiya nazariyasi, til va adabiyot o‘qitish metodikasi, gumanitar fanlarni o‘qitish sohalarini qamrab olgan. “Metodika” seriyasida professor-o‘qituvchilar, doktorantlar, stajor-tadqiqotchilar, mustaqil izlanuvchilar, magistrantlarning global ta’limdagi muammolar, til va adabiyot o‘qitishdagi innovatsion yondashuvlar, ta’lim va tarbiya nazariyasi yo‘nalishidagi ilmiy maqolalari nashr etiladi.

Jurnal bir yilda ikki marta chop etiladi.

O‘zbek, ingliz va rus tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e’lon qilinadi.

Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

“O‘zbekiston: til va madaniyat. “Metodika” seriyasi 2022-yildan nashr etila boshlangan.

Manzil: Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti. O‘zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103.

Email: metodika@tsuull.uz
Vebsayt: www.metodika.tsuull.uz

MUNDARIJA

GLOBAL TA'LIM MUAMMOLARI: YECHIMLAR VA TAKLIFLAR

Boqijon To'xliyev Alisher Navoiy pedagogik hamda metodik qarashlarining yana bir qirrasini haqida	5
Abdulhay Sobirov O'zbek tilining buguni va kelajagi bo'yicha mulohazalar	20
Gulshan Asilova Til ta'limida kasbiy muloqot ko'nikmalarini shakllantirish	30
Gulnoza Ahmedova O'zbek tili darslarida nutqiy muloqot madaniyatini oshirishdagi faollik tamoyili	42
Saodat Kambarova Adabiyotni so'z san'ati sifatida san'atning boshqa turlari bilan qiyoslab o'rganish usullari	54
Maxmuda Yuldasheva Evristik yondashuvning ustivor jihatlari	67

TIL TA'LIMI NAZARIYASI VA AMALIYOTI

Tursunay Yusupova O'quvchilarda inshoning mazmuniy-mantiqiy bayon qilinishiga doir bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish	77
Munira Shodmonova Ona tili va adabiyot o'qituvchilari kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari	86
Klaraxon Mavlonova 8-sinf ona tili darslarida matn tuzilishini o'rgatish mazmuni	99
Shohruh Abdiraimov Matnni o'qib tushunish ko'nikmasini baholash mezonlarini ishlab chiqish asoslari	109
Sanobar Kuldasheva Ona tili ta'limida multimediali usullardan foydalanish metodikasi ..	119
Nilufar Berdiyeva Ona tilini o'rganish bo'yicha qilingan tadqiqotlarni til ta'limida qo'llash.	128
Namoz Rasulov O'zbek tilida so'roq ifodalovchi lingvistik birliklar	139
Feruz Sharopova O'quvchilarning o'qib tushunish ko'nikmasini rivojlantirishga oid tajribalar tahlili.....	151

ADABIYOTNI SO‘Z SAN‘ATI SIFATIDA SAN‘ATNING BOSHQA TURLARIBILAN QIYOSLAB O‘RGANISH USULARI

Saodat Kambarova⁹

Annotatsiya

Adabiy asarlarini boshqa san‘at turlari bilan bog‘lab o‘rganishda o‘qituvchi zimmasiga san‘atga doir tushunchalar mazmuni, ularga xos xususiyatlar bilan batafsil tanishish, so‘ngra aynan o‘rganilayotgan namunalariga xoslikni belgilash va o‘quvchilar faoliyatini shu masalaga yo‘naltirish maqsadga muvofiq. Ta‘lim oluvchilarni axloqiy-estetik jihatdan tarbiyalashda nafaqat o‘quv fanlarining mazmuni, balki bilishga intilish yo‘llarini ham tadrijiy holda fan metodlarini egallash sari yo‘naltirish zarur. Bu esa insonga hayot tarzini go‘zallik qonuniyatlari asosida qurishga, tabiiy va ijtimoiy voqelik, mehnatga estetik munosabatni qaror toptirish uchun poydevor sanaladi. Shu nuqtayi nazardan mazkur maqolada adabiyotni san‘atning tasviriy san‘at, teatr, kino san‘ati namunalari bilan o‘rganishga doir fanlararo integratsiya va qiyoslash usuli imkoniyatlari xususida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: *san‘at, adabiyot, tasviriy san‘at, kino san‘ati, teatr, musiqa, integratsiya, qiyoslash.*

Kirish

Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida adabiyotni o‘quv predmeti sifatida o‘qitish ham, san‘at turi sifatida o‘qitish ham adabiy ta‘limning bir-birini taqozo etadigan, bir-birini boyitadigan o‘zak masalalaridandir. Adabiyotni o‘quv fani sifatida o‘qitish ilmiy nazariy qonuniyatlar bilan ish ko‘rsa, san‘at turi sifatida o‘qitish nazariy qonun-qoidalarning amaliyot bilan uyg‘unligini taqozo etadi. Shunga ko‘ra aytish joizki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-fevraldagi “Madaniyat va san‘at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorida umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining o‘quvchilari kamida bitta milliy cholg‘uda kuy ijro etishi joriy etilishi va bu masala umumiy o‘rta ta‘lim maktabi bitiruvchisining shahodatnomasiga kiritilishining belgilanishi” mohiyat e‘tibori bilan adabiyotning san‘at turi sifatida o‘qitilishi bilan chambarchas bog‘liqdir. Mazkur Qarorda “ixtisoslashgan pedagogik ta‘limni rivojlantirish va uning samarasidan maqsadli foydalanish” [O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2022-yil 2-fevraldagi “Madaniyat va san‘at sohasini yanada

⁹ Kambarova Saodat Ikinovna – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti O‘zbek adabiyoti ta‘limi kafedrasida dotsenti.

E-pochta: saodatkambarova73@gmail.com

ORCID ID: 0000-0002-9700-0685

Iqtibos uchun: Kambarova S.I. 2023. “Adabiyotni so‘z san‘ati sifatida san‘atning boshqa turlari bilan qiyoslab o‘rganish usullari”. *O‘zbekiston: til va madaniyat* 4 [2] : 54 - 66

rivojlantirishga doir qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi PQ-112-son qarori] vazifasining qoʻyilishi adabiyotni oʻquv fani sifatida ham, sanʼat turi sifatida ham oʻqitishga jiddiy yondashishni taqozo etadi.

Asosiy qism

Maʼlumki, sanʼat turlarida har xil kenglikdagi badiiy tasvir hayotni qamrab olishga qodir. Tasviriy sanʼatda rang va chiziqlar, haykaltaroshlikda marmar va bronza, musiqada tovushlar, baletda plastik harakatlar birikmasi kabi materiallar va oʻziga xos usullardan foydalaniladi. Badiiy adabiyotda esa asosiy material soʻzdir. Boshqa sanʼat turlarining oʻziga xos “tili” bor, lekin bu ogʻzaki emas, balki ranglar va chiziqlar, nisbatlar va hajmlar, ohanglar va plastik harakatlar kabi maxsus “til”dir. Sanʼat turlari tasvir tushirilgan materialning oʻziga xosligi bilan ajralib turadi.

Musiqiy kombinatsiyalar, tabiiy tovushlar, imo-ishoralalar va harakatlar uygʻunligi, marmar, granit, boʻyoqlar yoki qurilish materiallari – bularning barchasi eʼtibor qilinadigan omillar. Material, albatta, u yoki bu sanʼat turida hayotni aks ettirish doirasini ozmi-koʻpmi cheklaydi. Jumladan, “sanʼat ahli bilan naqsh beruvchi rassom sanʼati oʻrtasida qandaydir munosabat bor. Bular ikkalasining sanʼatdagi moddasi turli-tuman boʻlsa ham, ammo shaklda, yaratilish va maqsadlarida bir-biriga mos keladi. Yoki aytaylik, oʻsha ikkala yaratilgan narsada, ular shakllarida va maqsadlarida bir-biriga muvozanat, oʻxshashlik bor. Bu shundayki, sheʼr sanʼatini bezaydigan narsalar soʻz – mulohazalar boʻlsa, rassomlar sanʼatini bezaydigan narsa – boʻyoqlar sanaladi. Bularning ikkovi oʻrtasida farq bor, ammo ikkalasi ham feʼlda bir-biriga oʻxshash, ikkalasi ham odamlar tasavvuri va sezgilarida bir maqsadga – taqlid qilishga yoʻnalgan boʻladi” [Arastu 2004: 78].

Kinematografiya va teatr oʻz imkoniyatlari jihatidan adabiyotga eng yaqin sanʼat turidir. Bu, bir tomondan, ularda soʻzning asosiy rol oʻynashi, ikkinchidan, rivojlanishdagi hayotni tasvirlashi bilan izohlanadi. Kino va teatrning ulkan hissiy, tarbiyaviy taʼsiri shu bilan belgilanadi, bu yerda tasvir sintetik, bir vaqtning oʻzida ogʻzaki, tasviriy, musiqiy, haykaltaroshlik va boshqa vositalar yordamida yaratilganidadir. Musiqqa vizualizatsiya, tasviriylikka ega boʻlmagan, lekin kayfiyatning turli lahzalarini, inson “ruhi dialektikasi”ni toʻliq va nozik tarzda yetkazishga qodir boʻlgan ovozli tasvirni yaratadi.

Rassomning imkoniyatlarini obyektiv dunyoni konkret tarzda yetkazish qobiliyati bilan asoslash mumkin. Chizma yoki ranglar vositasida musavvir dunyo qiyofasini butun xilma-xilligi va individual xususiyatlari bilan mustahkamlaydi. Meʼmorchilikdagi oʻziga xoslik badiiy tasvir uygʻunligi va ular odamlarning ehtiyojlarini qondirish uchun muayyan amaliy ahamiyatga egaligida koʻrinadi. U oʻziga xos vositalar bilan dunyoni faqat juda chuqur gʻoyalarda, odamlar hayotining eng umumiy xususiyatlarida aks ettirishga qodir. Meʼmorchilikka oid asarlardan odamlarning ertangi kunga ishonchi ufurib turadi, ulugʻvorlik, tantanavorlik va nekbinlik sifatleri oʻz ifodasini topadi.

Sanʼatdagi ijodiy jarayonning muhim xususiyatlari mavjud. Uning

tarkibiy qismlari – tasavvur, fantaziya va ilhom. Tasavvur moddiy vositalar orqali in’ikos topadi. Fantaziya va tasavvur uyg’unlikda ijodiy faoliyatga yo’nalish beradi. Tasavvur mexanizmini tahlil qilish qiyin, ammo ijodning individual xususiyatlari va usullari xilma-xilligiga qaramay, asosiy jihatni ta’kidlash kerak. Aks holda ijodkorlik va yaratuvchanlik bo’lmaydi. Bu yozuvchi yoki olim tomonidan voqelikning son-sanoqsiz parchalarini yangi va kutilmagan yaxlitlikka aylantirishi, tashqi dunyodan olingan va ichki, o’z ruhiyatidan kelib chiqadigan qobiliyatidir, bu o’rinda, albatta, ikkinchisi muhimroq. Tasavvursiz odamlar, asosan, kuzatuvchan bo’lishadi va juda ko’p mayda-chuyda narsalarni yodlaydilar, ammo bu yodlashda haqiqatni ma’lum bir nuqtayi nazardan o’zgartiradigan xususiyat yetishmaydi. Ijodkorning individualligi taassurotlar xilma-xilligiga bog’liq emas, balki ichki dunyosi qanchalik boy bo’lsa, ijodini oziqlantiruvchi material shunchalik ko’p bo’ladi.

San’atning har bir turiga xos funksiyalar adabiyotshunoslik, musiqashunoslik yoki rang-tasvir nazariyasi kabi maxsus fanlar tomonidan o’rganiladi. Ular o’rtasida muayyan tafovutlar mavjud bo’lsa ham, boshqa tomondan umumiy bo’lgan estetik qonuniyatlarga bo’ysunadi. Masalan, turli materiallar va usullarni qo’llash farqli jihatlari sanalsa, real hayotni badiiy obrazlarda aks ettirish mushtarak xususiyatlaridir deyishga asos bo’ladi.

Bizningcha, badiiy obrazdagi keng qamrovli mavhumlik tafakkurning tiniqligi bilan to’g’ridan-to’g’ri uyg’unlashadi. Bunga misol tariqasida tarixchi olimning faqat tarixiy voqealarni izohlashi, voqea-hodisalarning sababiy bog’liqligini tushuntirishini ko’rsatsak; tarixchi-san’atkorning xuddi guvohdek yozishi, kitobxonni o’tmishga yetaklashi va o’sha davr tomoshabiniga aylantirishini qayd etish joiz. Aytish mumkinki, badiiy adabiyot fandan farqli ravishda voqea-hodisalarning tashqi belgilari, sezgilarning ifodasi haqidagi bilimlarni uning asl mohiyati bilan uyg’unlikda yetkazadi. Bu esa, o’quvchilarda kognitiv tajribalar kengayishi, o’rganilayotgan san’at asari haqida ko’p qirrali bilimlarni hosil qiladi.

Har bir badiiy obraz “adabiyot va san’atning fikrlash shakli, olam va odamni badiiy idrok etish vositasi, badiiyatning umumiy kategoriyasi” [Quronov, Mamajonov, Sheraliyeva 2010: 45] sifatida o’ziga xos birlikdir. Masalan, daryo salqinlik, kenglik, oqim yo’nalishi kabi o’ziga xos xususiyatlarga ega, ammo bu sifatlarning alohida-alohida berilgani to’g’ridan-to’g’ri u haqda tasavvur uyg’otmaydi. Binobarin, bunday xususiyatlar boshqa bir obyekt uchun ham xos bo’lishi mumkin. Fazo cheksiz, suv sovuq, yo’l uzun yoki tor bo’lishi tabiiy. Suv dengizda ham, sel oqimida ham shitob bilan yoki yoyilib harakatlanadi, faqat bunda alohida xususiyatlarning maxsus jamlanmasi mohiyatini o’zida mujassam etib, mazkur sharoitda daryogagina xos birlik sifatida namoyon bo’ladi.

Mardlik, vatanparvarlik, qat’iyat, ishonch kabi insoniy fazilatlarni tahlil qilish va tavsiflash shaxsning o’ziga xos qiyofasini anglashga imkon bermaydi. Sanab o’tilgan fazilatlar Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Mirzo Ulug’bek, Alisher Navoiy, Husayn Boyqaro, Bobur kabi tarixiy shaxslar obrazlariga ham xosdir. Ularning hayotiyligi, haqiqatni yoqlashi,

pirovardida, ijtimoiy ahamiyatini ana shu fazilatlar uyg'unligi bilan belgilanadi. Fan mana shu o'ziga xos fazilatlarni o'rganib, tahlil qilish orqali ularni ochib beradi. Shuningdek, obyektning qism va bo'laklarga bo'lib, butunligini buzadi. Adabiyot esa, bunga qarshi o'laroq, ijtimoiy-madaniy hayot manzaralari xususida yaxlit va sintetik tasavvur uyg'otadi.

Shunisi xarakterliki, asarda inson umri, hayot hodisalari rivojlanishda kechadi, xarakterlar qiyofasi tadrijiy holda ochila boradi. O'quvchi muallifga sheriklikda ijod jarayonida ishtirok etadi, chunki hikoya u bilan birga bilimning dialektik yo'liga kirib boradi, haqiqatni anglay boshlaydi. Muallif va kitobxonning dialogi ijodiy kechishi har ikkisining o'z vazifasini to'g'ri anglanganligiga ham bog'liq. Professor S. Matchonov bu borada o'rinli ta'kidlaganidek, "Aslida kitobxon ham yozuvchi singari ijodkor. U asar mutolaasi jarayonida muallif faoliyatini takrorlash yo'lidan boradi. Yozuvchi ijodining murakkabligi shundaki, u xayolida tug'ilgan g'oyani adabiy qahramonlarning xatti-harakati, kurashlari misolida konkretlashtirsa, kitobxon unga teskari – adabiy qahramon xatti-harakati, kurashlari tasviridan umumiy xulosalar chiqarish yo'lini tutadi" [Matjon 1996: 590].

Badiiy asar haqiqati, yangini bilish quvonchi, tabiiyki, estetik go'zallikdir. Badiiy adabiyot obrazlarda fikr yuritish, idrok etish shakli ekanligi haqida gapirilganda uning muhim xususiyati keng ommaga tushunarli ekanligidir. Fandan farqli holda, badiiy asar haqiqatini idrok etish uchun alohida hozirlik va bilim shart emas, binobarin, u go'yo hayot haqiqati kabi anglanadi. Ko'rinadiki, fan mantiqan asoslasa, adabiyot tasvirlar orqali aks ettiradi. Adabiyotni so'z san'ati sifatida o'rganish o'quvchilarning badiiy asarni emotsional-estetik idrok etish, uning go'zalligi va mazmunini tajribadan o'tkazishga qaratilgan o'quv faoliyatini tashkil etishdir.

Kitobxon diqqatini asardagi voqelik jalb etadi, qiziqishlari hissiyotlarini to'lqinlantiradi, fikrlash tarzini kengaytiradi, tasavvurlarini yorqinlashtiradi. Go'yoki, sujet chizig'ida qahramonlar bilan yonma-yon harakatlanadi. Masalan, J.Londonning umumiy o'rta ta'lim maktablari 10-sinfida o'rganilishi rejalashtirilgan "Hayotga muhabbat" hikoyasi mutolaasi chog'ida o'quvchida qanday kechinmalar yoki o'y-xayollar o'tishini xayolan tasavvurimizda jonlantiraylik.

Muallifning mahorati kitobxonga asarda Yo'lovchi bilan yonma-yon harakatlanishiga imkon yaratganida seziladi. Asar bilan tanishish o'quvchiga qahramon bilan ijodiy hamrohlik mas'uliyatini yuklaydi. Aniqroq aytganda, kitobxon go'yo qahramon bilan uning hayot yo'li bo'ylab yuradi, og'ir kunlarining har bir burilishlarini ko'radi, yashash uchun kurash jarayonining shakllanishini his etadi. Voqealar rivojida taqdir Yo'lovchi ustidan tobora ko'proq sinovlarini o'tkaza boshlaydi.

Ochlik, tanasidagi og'riq va kundalik ehtiyojiga yaraydigan narsalarini yo'qotishlar undan endi temirdek iroda, kuchli axloqiy va jismoniy sifatlarni talab qila boshlaydi. Agar uning ruhi va irodasi zaifroq bo'lganida, ehtimol, taqdiri osonroq hal bo'lardi. Qahramonning bu safarga




chiqishidan avval kuchi mudroqdek edi, biroq yakuniga kelib u uygʻonadi.

Hikoyada uning ochlikdan azob chekkanlarini, boʻri bilan olishuvlarini, tirik qolish ilinjida bor imkoniyatlaridan oxirigacha foydalana olgani koʻrinadi. Qahramon duch kelgan har bir vaziyati ortida – shu koʻyga tushishiga sabab boʻlgan omillarni ongida qayta sarhisob qilishiga guvoh boʻlish mumkin Hayotning har bir lahzasi qadrini tushunish, insonning irodasi nelarga qodirligini anglash zaruratini tushunib yetiladi. Bu kelgusida yoʻl qoʻyish mumkin boʻlgan xatolarga qarshi maʼnaviy immunitetdir. Oʻqish chogʻida oʻquvchi qahramon xarakterining rivojlanishida ishtirok etadi, shu bois nafaqat shakllangan inson shaxsiyati, balki jarayonning qanday kechishini ham anglab boradi.

Asarni adabiyot – tasviriy sanʼat – kino sanʼati talqini asosida tahlil qilish qahramon kechinmalari, muammolarni turli rakurslarda oʻrganish imkoniyatini kengaytiradi. Buning uchun oʻquvchilarga hikoya sujeti asosida ishlangan kartinalar va film variantlarini taqdim etiladi. Oʻquvchilarga ularni qiyoslab oʻrganishga doir savol va topshiriqlar beriladi:

Tasviriy sanʼat bilan integratsiya: Amerikalik rassom Ernest Blumenscein (1874–1960) tomonidan asarga ishlangan kartinalarni diqqat bilan kuzating. Illyustratsiyalar MsClure’s Magazine jurnalining 1905-yil dekabr soni uchun maxsus tayyorlangan.

1. Siz koʻrib turgan illyustratsiya hikoyaning qaysi lavhalariga ishlanganini aniqlang. Qahramonning ruhiy holati qaysi sanʼat turida taʼsirchan yoritilgan deb oʻylaysiz? Nima uchun?



2. Kartinadagi har bir detalni diqqat bilan koʻzdan kechiring. Ularni asardagi tasviri bilan solishtiring. Asar gʻoyasini ochib berishdagi oʻrnini tushuntiring.



3. Siz hikoya sujetida qanday ranglarni koʻrdingiz? Bu jihat kartinada qay darajada ochib berilgan?

4. Adabiyot va tasviriy sanʼatning imkoniyatlarini solishtiring. Muhim jihatlarini misollar orqali koʻrsating.

Kino sanʼati bilan integratsiya: Asarning ingliz tilidagi kino variantini tomosha qiling.

“Love in life”. Manba: YouTube platformasi.

Havola: https://youtu.be/sHTDt_y82hQ



1. Filmda qahramon ichki kechinmalari, ruhiyati, voqealar rivoji qay darajada ishonarli tasvirlangan?

2. Filmning qaysi o'rinlarida rejissor g'oyalari yetakchilik qilgani seziladi?

3. Qaysi san'at turining imkoniyatlari adabiyotga yaqinligini anglatdingiz? Nima uchun? Javoblaringizni misollar orqali asoslang.

4. Uchala san'at turini birlashtirgan jihatni aniqlang.

Badiiy asarlarni teatr san'ati bilan qiyoslab o'rganishda quyidagi usullardan foydalanish samaralidir:

1) "yozuvchi – teatr – tomoshabin" munosabatlariga e'tibor qaratish;

2) dramaning sujet, kompozitsiya, so'z va harakat kabi to'rt unsur dan tashkil topishini va ularning vazifasini yoritish;

3) asar sahnalashtirilgan teatr va ijodkorlari haqida ma'lumotlar bilan tanishtirish;

4) qahramonga nisbatan munosabat uyg'otish – bosh rollarni ijro etgan aktyorlar haqida hikoya qilib berish, ularning ijro jarayonidagi fotosuratlarini ko'rsatish;

5) sahnadan tashqari personajlarning o'rnini yoritish;

6) asarda tasvirlanayotgan davrning ijtimoiy-maishiy xususiyatlari o'zlashtirilishiga imkoniyat yaratish;

7) o'quvchiga asar yuzasidan o'z tasavvurini hikoya qilishi – voqea kechadigan joy, qahramonning tashqi qiyofasini tasvirlash vazifasini berish;

8) ssenariy muallifi, rejissor, bosh qahramonlar va tomoshabinlardan intervyu olishga tayyorlanish;

9) spektaklning ba'zi o'rinlaridan parcha qo'yishni rejalashtirish;

O'quvchilarga mutolaa davomida qahramonlarning o'zlarini tutishlari, gap-so'zlari va o'zaro munosabatlari dinamikasini kuzatib borish, bu jihat ularning nutqida qay tarzda aks etganligini tekshirish vazifasi yuklatiladi. Har bir parda bo'yicha savol-topshiriqlar ustida ishlanadi. Masalan, 9-sinfda "Hamlet" fojiasini o'rganishda quyidagi mazmundagi savol va topshiriqlar ustida ishlanadi:

1. Berilgan parchada asar yaratilgan davr ruhi, saroy muhiti, oddiy odamlarning turmush tarzi va kasb-kori qaysi detallar vositasida jonli va yorqin aks etgan? Fikringizga misollar ko'rsating.

2. Parchadagi tabiat tasviriga e'tiboringizni qarating. Undagi o'zgarishlar kitobxonga nimalarni bashorat qilmoqda?

3. Arvoh obrazining nutqidan uni oddiy inson, ota, umr yo'ldosh va

qirol sifatida gavdalantiruvchi o‘rinlarni ajratib yozing. Shu asosda uning ma’naviy olamiga baho bering.

4. Parchadan shahzoda nutqidagi so‘z o‘yinlarini aniqlang. Kinoyalarning boshqalar xarakteri, o‘zaro munosabatlarni ochib berishdagi o‘rnini misollar orqali ko‘rsating.

5. Hamletning “Oh, men qanday yaramas, olchoq bandaman...” deb boshlanuvchi monologini diqqat bilan o‘qib chiqing. Bu o‘rinda u qanday qiyofada gavdalanmoqda? Uning iqroriga to‘xtal-ing.

6. Fojia ichidagi “Sichqon qopqoni” pyesasi-ning muvaffaqiyati nimada deb bilasiz? Jahon yoki o‘zbek adabiyotidagi qaysi asarlarda Shekspirning “Asar ichida asar” yoki usuliga o‘xshashliklar bor?

7. Shahzoda nutqidagi “Pichan o‘sib bo‘lguncha ot ochidan harom olar” maqolini qanday tushundingiz? O‘zbek xalqida shunga yaqin biror maqol yoki iborani uchratganmisiz? Misol keltiring.

8. Fojiada qanday global mavzular qalamga olingan? Ularni ajratib yozing va har birining dolzarbligi haqida so‘z ayting.

9. Asrning axborotlashuvi, turmush tarzini moddiy jihatdan to‘kis qilish istagi ota-ona va farzand, og‘a-ini va opa-singillar o‘rtasidagi munosabatlarga qay darajada ta’sir ko‘rsatmoqda? Oqibatsizlik olib keladigan ma’naviy tanazzul xususida fikr yuriting.


Obrazlar tahliliga doir savollar:

1. Klavdiy nutqiga xos mantiqiylik qaysi o‘rinlarda yaqqol namoyon bo‘lgan? Bu uning xarakteridagi qaysi sifatlarni yanada bo‘rttirishga xizmat qilgan?

2. Amaki bilan jiyan – “o‘gay ota” va “o‘gay o‘g‘il” munosabatlaridagi adovatni yoritishda qo‘llanilgan kinoyalarga munosabat bildiring. Bu ular tabiatidagi qaysi jihatlarni to‘liq ochib bergan?

Tadqiq qiling: Qahramonlarning xarakter xususiyatlarni yoritishda qo‘llanilgan badiiy nutq texnikalarini aniqlab, jadvalga qayd eting. Ularning asardagi o‘rniga baho bering.

Qo‘llanilgan nutq texnikasi	Kimning nutqida? Kim bilan? Kimga qarata?	Qanday maqsadni ifodalaydi?	Qaysi sahnalarda?
Monolog			
Allegoriya			
Timsol			



Asarning turli talqinlari yuzasidan topshiriqlar

1. Internet manbalaridan asar sahnalashtirilgan teatrlar, rollarni ijro etgan aktyorlar haqida ma'lumot to'plang.

2. Fojianing o'zbek teatrlari sahnasida qo'yilishi tarixini o'rganing. Eng yaxshi ijroni tanlang.

3. Spektaklning ingliz va o'zbek tilidagi variantlari bilan tanishib chiqing.



O'zbek tilidagi talqini Manba: MTRK oltin xazinasidan		Ingliz tilidagi talqini Manba: Youtube platformasi	
---	--	--	--

Qo'g'irchoq spektakli. M.Shayxzoda tomonidan tarjima qilingan, Sh.Yusupov tahriridagi "Hamlet" qo'g'irchoq spektakli Toshkentdagi O'zbek milliy qo'g'irchoq teatrida sahnalashtirilgan. Sahnalashtiruvchi rejissor V.Apuxtin, rassom M.Ro'zimetov, xoreograf O.Ostanina, kompozitor D.Shostakovich. Hamlet rovida – S.Jo'rayev.

I. Topshiriq. O'qituvchingiz yordamida spektaklning internetdagi havolasini topib tomosha qiling va quyidagilarni bajaring:

1. Spektaklning badiiy yechimida qaysi janr yetakchilik qilishini aniqlang. Mazkur janrning qo'llanilishi sabablariga munosabat bildiring.

2. Sahna bezaklari, chiroqlar, musiqiy ohanglar va liboslarga e'tiboringizni qarating. Asada tasvirlangan davr muhiti, qahramonlarning ichki kechinmalari yoki xatti-harakatlarini ifodalashda mazkur vositalarning o'rnini belgilang. Adabiyot va qo'g'irchoq spektaklining o'ziga xosligini misollar orqali bayon eting.

3. Qo'g'irchoqlar timsoli, ularni boshqarish texnikasi bilan yaqindan tanishing. Aktyorlar mahoratiga baho bering.

4. Planshet qo'g'irchoqlar, niqobli va jonli plandagi aktyorlar ijrosini kuzating. Qo'g'irchoq qahramon obrazining niqobi vazifalari nimalardan iboratligini yoriting.

5. Spektaklda foydalanilgan qizil narvonlar nimaning ramzi ekanligini aniqlang. Ushbu detal asar matnida uchraydimi? Uning nima uchun qo'llanilganini asoslang.

6. Nur, soya, osmon tasviri, ohang ifodasi, jonli plandagi marhum obraziga munosabat bildiring. Ular nimaning ifodasi ekanligini ayting.

7. Foydalanish uchun manba: Turobova M. Qo'g'irchoq teatrida Shekspir asari / O'zbekiston adabiyoti va san'ati. – Toshkent, 2023-yil 13-oktabr. № 40 (4751). – B.

5. Havola: <https://www.afisha.uz/uz/theatres/2023/09/14/hamlet>

Multfilm. Tadqiqotchilar "Hamlet" tragediyasining ta'sirini Amerika multijodkorlarining "Qirol sher" multfilmida ham bor deb hisoblaydilar.

Multfilm voqealarining asosiy sujeti “Hamlet” bilan deyarli bir xil. Multfilm rejissyorlar Rojer Allers va Rob Minkofflar tomonidan 1994-yilda suratga olingan.

II Topshiriq. “Qirol sher” multfilmini YouTube platformasidan topib tomosha qiling (<https://mover.uz/watch/UiHHzTNf>) va “Hamlet” tragediyasi bilan qiyosiy tahlil qiling. Shu haqda jadval tuzing.

III topshiriq. Ijodiy ish. Asarni maktab sahnasida ijro etishga tayyorlaning. Buning uchun quyidagi topshiriqlarni bajaring:

1. O‘zingizga ma’qul bo‘lgan pardani sahnalashtirish ssenariysini tuzing.
2. Rollarni taqsimlang va qahramonlar nutqi ustida ishlang.
3. Aktyorlarning libosi, soch turmaklarini tanlang.
4. Voqealar kechadigan joy dekoratsiyasini yarating.
5. Afisha tayyorlang.
6. Premyera uyushtiring.
7. Spektakl yuzasidan muhokama tashkil eting.

Ma’lumki, tabiat lirikasi umumiy o‘rta ta’lim tizimida katta ta’sirga ega bo‘lib, bu ularni juda unumdor va estetik jihatdan ahamiyatli material sifatida ko‘rib chiqishga imkon beradi. Ijodkorning asosiy vazifasi kitobxonni she’rda tasvirlangan manzaralar ichiga kirishiga yo‘l ochishidir. Ifodali o‘qish she’rning asosiy ohangini tushunishga, shoir uyg‘otmoqchi bo‘lgan his-tuyg‘ularni anglab yetishga yordam beradi. O‘qituvchining asosiy vazifasi tabiat haqidagi she’rlar ustida ishlashni she’riyatga qiziqish uyg‘otadigan mazmunda uyushtirishdir. Buning uchun, o‘qituvchi, avvalo, o‘quvchilar she’r mazmuniga xos obrazlilikni anglashlariga doir usullarni ta’minlashi zarur. Jumladan, sharhli o‘qish, lug‘atlardan foydalanish badiiy obraz va obrazlilikning mohiyatini idrok etish, tasvir mavzusini aniqlash va ko‘ra olishga yordam beradi.

5-sinfda Mirtemirning “Bulut”, “Shudring”, “Baliq ovi”, 6-sinfda Omon Matjonning “Osmon sog‘inch kabi”, 9-sinfda Shavkat Rahmonning “Tong ochar ko‘zlarin...”, 10-sinfda Hamid Olimjonning “O‘rik gullaganda”, “Chimyon esdaliklari”, 11-sinfda Rauf Parfining “Tong otmoqda...” va boshqa she’riy asarlar tabiatning turli xil manzaralari tasvirlangan O‘.Tansiqboyevning “Tog‘da bahor”, “Oqshom pallasi”, “Oloy vodiysi”, A.Nurning “Munavvar tong”, O.Qozoqovning “Serka qirildi qishlog‘ida kuz”, Sh.Pirmatovning “Birinchi qor”, U.Sharaboyevning “Bahor”, G‘.Abdurahmonovning “Oydin kecha” kabi rasmlardan foydalanib, mavzuni tasviriy san’at fani mazvulariga bog‘lash mumkin bo‘ladi. O‘qituvchining savollari bo‘yicha suhbat, og‘zaki rasm chizish, yodlash, rasmlar bilan taqqoslash va boshqalar shular jumlasidandir. Bunda topshiriq-taqdimot metodi samarali natija berishi mumkin. Mazkur yondashuv lirik she’rlarni o‘rganishni shaxsiy tekislikka o‘tkazadi. She’rlarni o‘rganishga bag‘ishlangan darslarda o‘qituvchi har bir o‘quvchi oldiga quyidagi vazifalarni qo‘yishi mumkin:

- 1) she’riyat antologiyalaridan turli shoirlarning fasllar tavsifi yoki tabiat hodisalari tasviriga bag‘ishlangan she’rlarini o‘qish (masalan, Mirtemirning “Bulut”, “Baliq ovi”, “To‘rg‘ay”, “Shudring” kabi namunalar);

2) ma'lum bir faslning shaxsiy idrokiga mos keladigan she'rni tanlash (Faxriyorning "Bahor kelar dalalarga to'rkunlab" she'ri);

3) ushbu mavsum haqidagi o'z tasavvurlarini solishtirish;

4) she'rni ifodali o'qishga tayyorlanish;

5) ushbu she'rni tanlashi sababini tushuntirib, og'zaki javob tayyorlash.

Alohida baholash uchun o'quvchilardan she'r mavzusi, chizgilar yoki motivlariga mos keladigan musiqiy, badiiy, tasviriy namunalarni tanlashlari so'raladi. Jarayonda tanlangan asarlarning ritmi, ohangi yoki mazmunidagi mushtaraklik kabi jihatlariga e'tibor qilinadi. Buning uchun o'rganilayotgan asarlarga mos musiqiy yoki tasviriy san'at namunalaridan maxsus audiogalereya tayyorlab qo'yilishi kerak. Masalan, asarning umumiy ruhi qaysi kuyni taqozo etishi o'quvchilarning musiqiy bilimlarni qay darajada o'zlashtirilganliklariga ham uzviy bog'liq. Zero, tanlangan musiqa o'quvchilarning ruhiy va anatomik xususiyatlariga muvofiqlikda ularning qalbiga keskin ohangda emas, aksincha, asta-sekinlik bilan bir maromda ta'sir qilishi maqsadga muvofiq. Bunda fanlararo aloqaga tayanish katta ahamiyat kasb etadi.

Musiqa darslarida kuy-qo'shiqlarga xos xususiyatlar bilan tanishtirib borish o'quvchilarda o'tmish ajdodlarimizning tafakkuri, didi, dunyoqarashi va musiqiy bilimdonligiga nisbatan katta qiziqish uyg'otadi. Masalan, "Shahmaqom"dagi "Ushshoq", "Navo", "Bo'saliq", "Rost", "Husayniy", "Hijoz", "Rahoviy", "Zingula", "Iroq", "Isfahon", "Zirafkand", "Buzruk" deb nonlanuvchi bu maqom yo'llarining nega aynan o'n ikkita ekanligini anglatish maqsadida VI asrda yashab ijod qilgan musiqashunos olim Najmiddin Kavkabiy o'zining "Musiqqa haqida" nomli risolasida "Ayrim maqomlarni ijro etishda muvofiq keluvchi vaqtni tanlash lozim. "Rahoviy" maqomini quyosh chiqishi oldidan, "Ushshoq"ni quyosh chiqib bo'lgach, "Rost"ni choshgoh arafasida, "Iroq"ni choshgoh mahali, "Buzruk"ni quyosh botayotgan paytda, "Navo"ni namozshom vaqtida, "Isfahon"ni tunda ijro etish lozim" deb yozib qoldirgan. Bu ma'lumotlar qadimgi bastakorlarimiz bir sutkalik inson faoliyati davomida uning tanasi va asab tizimi holatidan kelib chiqib, "Shahmaqom"dan qay tarzda foydalanishni bilganliklari, ularni ijro etishga mos vaqtni to'g'ri tanlay olganliklaridan dalolat beradi" [Ahmedova, Hamroyev 2013: 32]. Mana shunday mazmundagi materiallar mumtoz asarlarni o'rganish jarayonida audiogalereyalar yaratish uchun qo'l keladi.

Adabiyot darslari uchun audiogalereya – bu muayyan sinf o'quv dasturlariga mos holda shakllantirilgan ketma-ketlikda harakatlanuvchi qo'shiqlar jamlanmasi. Adabiyot o'qituvchisi dasturda o'rganilishi rejalashtirilgan ijodkorlar yoki mavzuga tegishli bo'lgan boshqa she'rlar asosida yaratilgan qo'shiqlardan ham maxsus galereya yaratishi mumkin. Masalan, galereya quyidagi mazmunda yaratiladi:

1. Mumtoz asarlar asosida (Lutfiy, Navoiy, Bobur, Mashrab kabi shoirlar g'azallari);

2. Zamonaviy she'riy namunalar asosida (H.Olimjon, A.Oripov,

E.Vohidov, O.Matjon, M.Yusuf, U.Azim, T.Sulaymon kabi shoirlar ijodi);

3. Milliy kuylar asosida (“Qari navo”, “Cho‘li iroq”, “Dilxiroj” kabi);

4. Mavsum bilan bog‘liq tabiat hodisalari (bahor, qish, yomg‘ir), gul-chechaklar tasviri qo‘shiq qilingan asarlar va h.k.

Shu o‘rinda ta’kidlash joziki, adabiyot va musiqa fanlari integratsiyasida musiqa ta’limiga oid ayrim jihatlar e’tiborga olinishi zarur. Shu tariqa o‘quvchilar mavzu va kayfiyatga yaqin she’r tanlashi, izohlashi va uni ifodali o‘qishga tayyorlanishi mumkin. Bu holda juda an’anaviy o‘quv vazifasi bir qator shartlarning o‘zgarishi tufayli o‘quvchiga yo‘naltirilgan xususiyatga ega bo‘ladi:

1) o‘quvchilarga o‘zlari uchun eng yaqin she’rlarni tanlash imkoni beriladi (bunda o‘quvchi tanlovining mantiqiy asoslari muhim sanaladi);

2) o‘quv materiali shaxsiy xususiyatga ega bo‘ladi: o‘quvchilar buni subyektiv tajriba bilan bog‘lashlari ko‘zda tutiladi;

3) o‘quvchining ifodali o‘qish mahorati tekshiriladi;

4) o‘quvchilar diqqat bilan tayyorgarlik ko‘rishga majbur, chunki ular o‘z ishining natijalarini ommaviy namoyish qilishlari kerak;

5) o‘quvchilar o‘zining ijodiy “men”ini ko‘rsata bilish imkoniga ega bo‘ladilar;

6) turli fanlar doirasidagi bilimlariga asoslaniladi va h.k.

Xulosa

Adabiyotni san’at turi sifatida o‘qitishda o‘quvchilarning inson obrazi barcha san’at turlarining mavzusi, obrazlilik ijtimoiy hayotning in’ikosiligini tushunishi, san’atning muayyan turiga xos badiiy obraz yaratish materialini farqlay bilishi, muallifning obraz ichki dunyosini tasvirlashda peyzajdan foydalanish mahorati, tabiat hodisalari inson hayoti bilan uyg‘unlikda aks ettirilishi, badiiy obraz yaratishda muallifning subyektiv bahosi, badiiy to‘qima san’at turlarining estetik imkoniyatlarini ochish omili ekanligini idrok etishlariga doir qonuniyatlar, tamoyillar, metodlar, shakllar va vositalar majmuyi axloqiy-estetik tarbiyaga xizmat qiladi.

Adabiyotlar

Аҳмедова Н., Ҳамраев Ф. 2013. “Муסיқа ўқитувчиларининг касбий маҳоратини оширишда “Шашмақом”нинг узлуксиз имитацион моделидан фойдаланиш”. *Uzluksiz ta’lim* 5: 27–34.

Арасту. 2004. *Поэтика. Ахлоқи кабир (Катта ахлоқ китоби)*. Тошкент: Янги аср авлоди.

Ҳотамов Н., Саримсоқов, Б. 1979. *Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати*. Тошкент: Ўқитувчи.

<https://www.afisha.uz/uz/theatres/2023/09/14/hamlet>

<https://mover.uz/watch/UiHHzTNf>

https://youtu.be/sHTDt_y82hQ

Матжон, С. 1996. *Мактабда адабиётдан мустақил ишлар*. Тошкент: Ўқитувчи.

Қуронов, Д., Мамажонов, З., Шералиева, М. 2010. *Адабиётшуносликка кириш*. Тошкент: Akademnashr.

Turobova, M. 2023. Qo‘g‘irchoq teatrida Shekspir asari / *O‘zbekiston adabiyoti va san’ati*. 13-oktabr.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2022-yil 2-fevraldagi “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-112-son qarori.

<https://lex.uz/uz/docs/- 5849580>

METHODS OF STUDYING LITERATURE AS AN ART OF WORDS IN COMPARISON WITH OTHER TYPES OF ART

Saodat Kambarova¹⁰

Abstrakt

When studying literary works in connection with other types of art, it is the responsibility of the teacher to get acquainted with the content of concepts related to art, their specific characteristics, and then to determine the characteristics of the samples being studied and to direct the students' activities to this issue. It is appropriate to train. In the moral-aesthetic upbringing of students, it is necessary to gradually direct not only the content of academic subjects, but also the ways of striving for knowledge towards mastering the methods of science. This is the basis for building a way of life for a person based on the laws of beauty, deciding on an aesthetic attitude to natural and social reality, work. From this point of view, this article talks about the possibilities of the interdisciplinary integration and comparison method of studying literature with examples of fine art, theater, cinematography.

Key words: *art, literature, visual arts, cinematography, theater, music, integration, comparison.*

References

Аҳмедова Н., Ҳамраев Ф. 2013. “Муסיқа ўқитувчиларининг касбий маҳоратини оширишда “Шашмақом”нинг узлуксиз имитацион моделидан фойдаланиш”. *Uzluksiz ta’lim* 5: 27–34.

Арасту. 2004. *Поэтика. Ахлоқи кабир (Катта ахлоқ китоби)*. Тошкент: Янги аср авлоди.

Ҳотамов Н., Саримсоқов, Б. 1979. *Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли лугати*. Тошкент: Ўқитувчи.

<https://www.afisha.uz/uz/theatres/2023/09/14/hamlet>

<https://mover.uz/watch/UiHHzTNf>

https://youtu.be/sHTDt_y82hQ

Матжон, С. 1996. *Мактабда адабиётдан мустақил ишлар*. Тошкент: Ўқитувчи.

_____ Куронов, Д., Мамажонов, З., Шералиева, М. 2010.

¹⁰ Kambarova Saodat Irkinovna – Doctor of Philosophy in Pedagogy (PhD), dotsent of Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

E-pochta: saodatkambarova73@mail.com

ORCID: 0000-0002-9700-0685

For citation: Kambarova, S. 2023. “Methods of studying literature as an art of words in comparison with other types of art”. *Uzbekistan: Language and Culture* 2 (4): 4 [2]:54-66

Адабиётшуносликка кириш. Тошкент: Akademnashr.

Turobova, M. 2023. Qo‘g‘irchoq teatrida Shekspir asari / *O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati*. 13-oktabr.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2022-yil 2-fevraldagi “Madaniyat va san‘at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-112-son qarori.

<https://lex.uz/uz/docs/- 5849580>